

SHAFOAT TERMIZIY SHE'RIYATIDA TARIXNING LIRIK MANZARASI**Muxtorova M. Sh.**

TerDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Shafoat Termiziy o'zining "Ozod so'z", "Gulob" kitoblarida tarixga juda ko'p murojaat qilgan, Surxon vohasining o'ziga xos bo'lgan tarixidan unumli foydalangan holda go'zal she'rlar yaratgan, maqola, asosan, shunday she'rlarning bir nechtasi tahlilga tortilgan.

Kalit so'z: Vatan, "Ozod so'z", "Gulob", Shumerning loy xatida, Afrosiyob, Xolchayon bitiklarida, nilufar gumbazlari.

Shoir she'rlarida Vatan obrazi butun bir o'tmishi, "moziyning qat-qatida" yotgan million yillik tarixi bilan bo'y ko'rsatadi. U munaqqid ta'kidlaganidek: "...ona-yurt qiyofasini shunchaki chizmaydi, balki moziyga murojaat qilib, uning kechagi va bugungi kuniga nazar tashlaydi. U Vatanning suvratini Shumerning loy xatida, Afrosiyob, Xolchayon bitiklarida, nilufar gumbazlarning osmonida ko'radi".

Xalqim ajdodning izi moziyning qat-qatida,
Men uni ko'rayapman Shumerning loy xatida.
Jahonning hayratidir Afrosiyob, Xolchayon,
Heradod yozig'idan Samarqand, Termiz ayon,
Goh masagget, goh so'gd, goh bo'ldi noming kushon,
Nilufar gumbazlaring osmon ichra bir osmon,
Ey, mening jon Vatanim – o'zbekim onajonim,
Vatanga tortiq desang beraman mana jonim¹.

"Shafoat Rahmatullayev she'rlarida Vatanga mehr–muhabbat juda kuchli va u buni yalang'och misralarda ifodalaydi. Obrazlilikka intilaman deb, balandparvoz so'zlarni hamda yasama tashbehlarni ham ishlatmaydi. Bu esa she'ning tabiiy chiqishini ta'minlaydi"². Shoir she'rlarida Vatan obrazini xalq, tarix va Istiqlol bilan chambarchas bog'liq holda tasvirlaydi. Shu jihatdan uning ijodida Vatan obrazini quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Tarixiylik asosida Vatan obrazi tasviri
2. Istiqlol tarannumida Vatan obrazi.

Shoirning "Vatan", "O'zbekim onajonim", "O'zbekiston", "Bizkim Termiz", "Ona yurt" she'rlari Vatan ta'rifiga bag'ishlangan. Yuqorida keltirilgan "O'zbekim onajonim" qasidasi muashshar (o'nlik) she'riy shaklida bo'lib, unda Vatanning uzoq o'tmishidan tortib yorug' istiqboli, shukuhli Istiqloli tarannum etiladi. She'rda Vatan obrazi tarixiy tadrijiylikda birinchi bandda – "moziyning qat-qati", "Shumerning loy xati", "Afrosiyob", "Xolchayon" – o'tmish ajdodlarimizning qadimgi turar joy manzillari; Geradot – buyuk tarixchi olim; Samarqand, Termiz – qadimiy shaharlarimiz; masagget, sug'd – o'lkamizda yashagan qadimgi qabilalar; Kushon – o'lkamizdagi, xususan, Surxondaryodagi qadimgi ilk podsholik davlati kabi ming yilliklar ortidagi uzoq o'tmishi bilan aks ettiriladi. Ikkinchi bandda shoir tariximizdagi buyuk siymolar – Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur nomlarini aynan qo'llamay, o'ziga xos metaforalarda ularga ishora qiladi:

O'g'ling edi **samoga ulug' bek bo'lgan bir zot,**

¹ Шафоат Раҳматулла Термизий. Гулоб. – Термиз. – 1992. –Б.4.

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/> Mahmud Abulfayz. Yurak bir maromda kuylovchi bulbul.

Sher farzanding she'riday she'riy taxt bo'ldi Hirot,

Bir yo'lbars bolang topdi Jamna bo'yida murod,

Poygada o'zaverding minib Boychipor, G'irot³.

Shoirning tarixiylik asosidagi yirik she'riy turkumi – “Mening Avestam” deb nomlanadi. Ushbu turkum uning “Saylanma”sida Ikkinchi manzilga kiritilgan. “Monologlar va dialoglar kitobidan” iborat mazkur turkum 1973-1976 yillarda yaratilgan. Unda yettita kechadan iborat diologlar, turli mavzulardan iborat 18 ta monolog she'rlar joy olgan. Turkumdagi she'rlarda poetik ohang jozibasi, olam va odam haqidagi hikmatli o'ylar manzarasi o'quvchi tuyg'ulariga g'alayon soladi. Monologlarda, asosan, behudud olam, uni tashkil etuvchi to'rt unsur: tuproq, olov, suv, havo haqidagi bahslar bevosita inson va uningbelgi-xususiyatlari, surati va siyrati haqidagi mulohazalarga ulanib ketib, o'ziga xos bir butunlik hosil qiladi. Bu yerda inson va olamning jismiy va ruhiy tarkibiyligi, ajralmasligi, bog'liqligi haqidagi o'sha qadimiy falsafa shafaoatona ohangini topgandir. To'planning bu qismida monologlardan keyin keltirilgan dialoglar ham dunyoning yaralishi, o'lka tarixi, Vatan taqdiri uchun jon chekkan aziz zotlar, tarix sahnasida ezgulik va yovuzlik timsoliga aylanib qolganlar qismati, umuman, tarix saboqlari poetik tasvirlarda ifoda etilgan. Mazkur turkumda shoirning falsafiy, tarixiy qarashlari jamlagan. Ushbu turkumda shoir “Termiziy dahmasi o'sha bo'ylasam”, “Vatan haqida monolog” she'rlarida ona-Vatanning qiyofasini nihoyatda samimiy, sodda misralarda ifoda etadi. Vatan deganda “kulbalar, kavaklar, uyalar, inlardan tortib, boshpana, xonagacha” undan katta va keng – Ona yurt timsoligacha ko'z oldimizga keltiramiz. Shoir Vatanni Onaga qiyoslashning sababini tushuntirib o'tirmaydi, “Men uni yaratdim, qurdim, kengaytim” – deb yozadi.

Lek tavallud kungi odmi yo'rgagim,

Ham yo'rgakchim ul yurt edi Vatanim.

Bobo yurt tarixi, bobolar shoni,

Farzandlar ruhiga buyuk tasalli⁴.

Ko'rinib turibdiki, Shafaat Rahmatullo Termiziyning she'rlarida poetik fikr oddiy emas, misradan misraga, banddan bandga o'tgan sari ma'no uflari kengayib, poetik mulohazalar bir qancha tarixiy takomil bosqichlarini bosib o'tadi va shu asosda betakror badiiy mazmunga ega yangi bir mikroolam yaratiladi. Shoirning “Tirmiz monologi” she'rida tamaddunlar dunyosiga beshik bo'lgan, ziyo, ipak yo'llariga eshik bo'lgan qadim va navqiron, islom olamida “ona shahar”deya ta'riflangan, avliyolar, anbiyolar yurti – Termizga faxr va iftixor tuyg'ulari ifodalanadi. Shafaat Rahmatullo Termiziyning benazir iste'dodi Vatanga yangicha mehr-muhabbat izhori tarixiylik va Istiqlol madhi orqali o'ziga xos ifoda topgan.

Dissertatsiyada bu xususida batafsil tahlillar keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Шафоат Раҳматулла Термизий. Гулоб. – Термиз. – 1992. –Б.4.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/> Mahmud Abulfayz. Yurak bir maromda kuylovchi bulbul.
3. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент:Янги аср авлоди. – 2003. – Б. 188.

³ Шафоат Раҳматулла Термизий. Гулоб. – Термиз. – 1992. –Б.4.

⁴ Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент:Янги аср авлоди. – 2003. – Б. 188.